

To‘xtayev Komil Dilshodovich

Buxoro xalqaro universiteti, lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Bu maqola tilshunoslikdagi “turg‘un birikma” atamasi tahliliga bag‘ishlangan. Unda turli manbalardagi turg‘un birikma haqidagi fikrlar to‘plangan va umumlashtiruvchi xulosa qilingan. Maqolada manbalarda aytib o‘tilgan turg‘un birikmalar tasniflangan. Shundan keyin turg‘un birikmalarning umumiy xususiyatlari izohlangan. Maqola ingliz tilidagi turg‘un birikmalar muhokamasi bilan yakunlangan.

Kalit so‘zlar

turg‘un birikma, to‘g‘ri ma‘no, ko‘chma ma‘no, frazema, qo‘shma ot, termin, qisqartma, kalka, maqol, aforizm, parafraza, o‘xshatish, binomial.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу лингвистического термина “устойчивое словосочетание”. В ней собраны мнения из различных источников об устойчивых словосочетаниях, а также сделан обобщающий вывод. В статье классифицируются устойчивые словосочетания, упомянутые в источниках. Далее разъясняются общие свойства устойчивых словосочетаний. Статья завершается обсуждением устойчивых словосочетаний в английском языке.

Ключевые слова

устойчивое сочетание, прямое значение, переносное значение, фразема, составное существительное, термин, аббревиатура, калька, пословица, афоризм, перифраз, сравнение, биномиал.

Annotation

This article is dedicated to the analysis of the linguistic term “fixed expression”. It gathers several opinions about fixed expressions from various sources and draws a conclusion. The article classifies the fixed expressions mentioned in the sources. After that, it explains the general features of fixed expressions. The article ends with the discussion of fixed expressions in the English language.

Key words

fixed expression, direct meaning, figurative meaning, phraseme, compound noun, term, abbreviation, calque, proverb, aphorism, epithet, simile, binomial.

Tilshunoslikda til birliklarining bir nechta turlari bor. Shulardan bir turi turg‘un birikma deb ataladi. “Turg‘un birikma” atamasini tilshunoslar va til o‘qituvchilari

tomonidan turlicha tushunish holatlari uchraydi. Ayrimlar turg'un birikma deyilganda faqat iboralar nazarda tutiladi, deb o'ylashadi. Turg'un birikmalar nima ekanligini uzil-kesil tushunib olish uchun tilshunoslik kitoblarida bu atamaga berilgan ta'riflarni tahlil qilamiz.

“Turg'un birikma” atamasi asosan leksekologiya va frazeologiya bo'limlari muhokamasida uchraydi. Tilshunoslik haqidagi kitoblarda bu atamaga quyidagicha ta'rif va tushuntirishlar berilgan:

1. Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lot. *parema* – barqaror, *logos* – ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. *parema* – barqaror, *grapho* – yozmoq) sanaladi. [5, 234–235]

2. Turg'un bog'lanma keng tushuncha bo'lib, to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalarga ajratiladi; ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar frazema deyiladi.

To'g'ri ma'noli turg'un bog'lanma deb tarkibli terminlarga (*olmoshlab ekish* kabi), takror qolipi asosida tuziladigan birliklarga (*kuchiga kuch qo'shiladi, husniga husn qo'shib turibdi, kundan kunga* kabi) aytiladi. [7, 421]

3. Shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermaydi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* birikmasi turg'un konstruksiyadir, ammo to'g'ri ma'noli turg'un konstruksiya bo'lganligidan frazema hisoblanmaydi. [3, 217]

4. Frazemaning mazmun plani albatta ko'chma ma'noga asoslanadi, aks holda uning to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan (*elektron hisoblash mashinasi, kvadrat uyalab ekish* kabi sostavli terminlardan) farqi qolmaydi. [3, 217]

5. Qo'shma otlardan tashqari, turg'un birikma tarzidagi otlar ham bo'ladi. Bunday otlar ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi, bu so'zlar orasida aniqlovchilik munosabati saqlangan bo'ladi. Bunday birikma tarkibidagi so'zlarning hammasi birgalikda yaxlit bir tushunchani anglatadi. Turg'un birikma tarzidagi qo'shma otlarning keyingi qismi ko'pincha uchinchi shaxs egalik affiksini olgan bo'ladi: *mehnat daftarchasi, xalq maorifi bo'limi, O'zbekiston Respublikasi, Vazirlar Mahkamasi* kabi.

Turg'un birikma tipidagi qo'shma otlar tarkibidagi so'zlarning o'rnini o'zgartirib bo'lmaydi: *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Hamjamiyati, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi* kabi. [9, 56–57]

6. Terminlarning ifoda plani so'zga (*hujayra, to'qima*) yoki turg'un birikmaga (*o'q ildiz, popuk ildiz*) teng bo'ladi. Har ikki ko'rinishda ham termin leksema deb hisoblanadi, bunda uning nominativ birlik ekanligi e'tiborga olinadi. [3, 150]

7. Z. Qodirov soʻz birikmalari tasnifi chizmasida turgʻun birikmalarni quyidagi ikki turga ajratgan: a) turgʻun birikmalar: ibora, maqol, aforizm, topishmoq, parafraza; b) ajralmas birikmalar, masalan, BMT, ADU. [6, 224]

8. Abbreviatsiya usulida turgʻun birikma tarkibidagi qismlar qisqartiriladi, bunda turgʻun birikma tarkibidagi qismlarning yopiq boʻgʻinga teng qismlari olinadi. [4, 77]

9. Yakka leksemalardan tashqari, *madaniy-oʻquv muassasalari, mehnat daftarchasi* kabi koʻpgina turgʻun birikmalar ham mavjud. Bunday professionalizm ayniqsa matematika, fizika, kibernetika kabi fan sohalarida koʻp uchraydi. [7, 91]

10. Semantik kalkada ... *legkovaya mashina* turgʻun birikmasini oʻzlashtirish talabi tugʻilganda *legkovaya* leksemasining oʻzbekcha muqobili yengil leksemasiga shunday maʼnoni anglatish vazifasi birkutilgan (*yengil mashina*). [7, 110]

Tilshunos olimlarning yozganlaridan biz tushunamizki, turgʻun birikmalarni leksikologiya, frazeologiya va paremiologiya boʻlimlari oʻrganadi. Shuningdek, tarjimashunoslikda kalkalash usuli bilan tarjima qilingan soʻz birikmalari ham turgʻun birikmalar guruhi tarkibiga kiradi. Turgʻun birikmalar “turgʻun bogʻlanmalar” va “barqaror birikmalar” nomlari bilan ham ataladi.

Yuqorida keltirilgan tilshunoslar fikrlarini umumlashtirib, turgʻun birikmalarning quyidagi tasnifini tuzish mumkin:

1. Frazeologik birliklar (frazeologizmlar/frazemalar): *ogʻzi qulogʻida, tepa sochi tikka boʻlmoq*;

2. Turgʻun birikma shaklidagi terminlar: *dasturlash tili, ovqat hazm qilish tizimi, koordinatalar tizimi*;

3. Turgʻun birikma shaklidagi qoʻshma otlar: *Yevropa Ittifoqi, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, mehnat daftarchasi*;

4. Turgʻun birikma shaklidagi qoʻshma otlarning qisqartmalari: *BuxDU, YI, JSST*;

5. Takror qolipi asosida tuzilgan birliklar: *kuchiga kuch qoʻshiladi, kundan kunga*;

6. Kalkalash yoʻli bilan hosil qilingan turgʻun birikmalar. Bu soʻz birikmalari manba tilda erkin birikmalar boʻlishi mumkin, lekin soʻzma-soʻz tarjima natijasida hosil qilingan ekvivalent uni oʻzlashtirgan tilda turgʻun birikmaga aylanadi. Misollar: *butunjahon oʻrgimchak toʻri, elektron pochta*;

7. Maqol va matallar: *Qargʻa qargʻaning koʻzini choʻqimas, Ot aylanib qozigʻini topadi*;

8. Aforizmlar: *Tilga ixtiyorsiz – elga eʼtiborsiz* (Alisher Navoiy);

9. Topishmoqlar: *Pak-pakana boʻyi bor, Yetti qavat toʻni bor*;

10. Parafrazalar – oʻxshatish asosida bir narsa haqida keragidan ortiqcha soʻzlardan foydalanib gapirish: *dala malikasi* (makkajoʻxori), *oq oltin* (paxta).

Yuqorida tilshunos olimlarning taʼriflarida sanalmagan yana bir turgʻun birikma turi bor. Bu tur kollokatsiya deb ataladi. Kollokatsiyalar kuchli bogʻlanish hosil qilgan

soʻz birikmalari boʻlib, ular ham toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikmalarga kiradi. Misollar: *borgan sari, ayni damda*.

Yuqorida fikrlari keltirilgan tilshunoslar turgʻun birikmalarning xususiyatlari haqida ham maʼlumot berishgan. Ularga koʻra, turgʻun birikmalar quyidagi uch xususiyatga ega:

1. Turgʻun birikmalar tilda tayyor holda mavjud va ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Bu jihatga koʻra, turgʻun birikmalarning teskarisi erkin birikmalardir. Erkin birikmalar soʻzlovchi nutqida nutq jarayonida bitishuv, boshqaruv va moslashuv yoʻllari bilan hosil qilinadi;

2. Turgʻun birikmalarda tarkibidagi soʻzlarning alohida maʼnolari emas, balki barcha soʻzlarning umumiy maʼnosi tushuniladi;

3. Turgʻun birikmalar tarkibi asosan barqaror, oʻzgarmas boʻladi. Shunga qaramay, ayrim turgʻun birikmalarning tarkibi oʻzgargan variantlari ham bor: gapni bir joyga qoʻymoq, gapni bir yerga qoʻymoq; maslahatni bir joyga qoʻymoq; maslahatni bir yerga qoʻymoq [8, 176];

4. Turgʻun birikmalar sintaktik jihatdan yaxlit boʻlib, ular gapda bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi.

Turgʻun birikmalar faqatgina oʻzbek tiliga xos til hodisasi emas. Ular koʻp tillar qatorida ingliz tilida ham mavjud. Ingliz tili turgʻun birikmalar miqdori jihatidan oʻzbek tilidan boyroqdir. Bu fikrimni quyidagi fakt bilan dalillayman: oʻzbek tili frazeologik birliklarining toʻplami boʻlgan Sh. Rahmatullayevning “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati” hajmi 636 bet, men topa olgan eng katta amerika ingliz tilisi iboralari kitobi esa 1080 bet ekan. Albatta, men bu fikrimni shu ikki raqamga asoslanibgina bildirdim.

Ingliz tilida turgʻun birikmalar “fixed expressions”, “set phrases” va baʼzan “prefabricated units” (oldindan tayyorlab qoʻyilgan birliklar) deb ham atalar ekan. Frazeologik birliklar esa “idioms”, “phraseological units”, “word combinations”, “phrasal lexemes”, “phrasemes” va “phraseologisms” deb ataladi. [1, 1]

Yuqorida keltirilgan turgʻun birikmalar turlariga ingliz tilidan misollar:

1. Phraseological units: over the moon (oydan tepada; yettinchi osmonda), hit the roof (gʻazabdan tomni yoradigan darajada boʻlmoq; gʻazabdan portlamoq);

2. Terms in combination form: lexical motivation (leksik motivatsiyalanganlik), olfactory sense (hid sezgisi);

3. Compound nouns: the United Kingdom, the World Health Organisation;

4. Abbreviations: the UK, IELTS;

5. Fixed expressions formed by repeating the noun: day after day, word for word, side by side;

6. Fixed expressions formed by calquing: by heart (fransuz tilidan), masterpiece (golland yoki nemis tilidan);

7. Proverbs: Every cloud has a silver lining (Har qorong‘i tunning bir yorug‘ kuni bor.);

8. Aphorisms: “We forge the chains we wear in life” (“Biz bu ustimizdagi zanjirlarni tirikligimizda o‘zimizga yasab olamiz”; Charlz Dikensning “A Christmas Carol” qissasidan);

9. Riddles: I’m not a teacher, but I help you write. What am I? (Men sening ustozing emasman, lekin senga yozishga yordam beraman. Men nimaman?);

10. Periphrases: “Heavenly water dropped on the earth” (It rained).

Ingliz tilida bulardan tashqari yana ikkita turg‘un birikmalar turi bor:

1. Similes (tarkibida “like” va “as” so‘zlari bor bo‘lgan o‘xshatishlar): as good as a son (o‘glimday aziz), as sweet as honey (asalday shirin);

2. Binomials (binomiallar; “and” va “or” so‘zlari bilan bog‘langan turg‘un birikmalar): bread and butter (suv va havo), safe and sound (sog‘-omon).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turg‘un birikmalar atamasi tarkibiga iboralar, terminlar va maqollar kabi til va folklor birliklari kiradigan keng ko‘lamli tushunchadir. Turg‘un birikmalar ularni erkin birikmalar va leksemalardan farqlovchi tilda tayyor holda mavjudlik, umumiy ma‘no ifodalash, barqarorlik va sintaktik yaxlitlik xususiyatlariga ega. Ular tilning qimmatli bir qismiga aylangan va o‘sha tilda so‘zlashuvchilar nutqini hissiy bo‘yoqdorlik, donishmandlik va o‘qimishlilik xususiyatlari bilan ta‘minlaydi va boyitib beradi. Turg‘un birikmalarning turlari tegishlicha ilm-fan va adabiyot kontekstlarida keng qo‘llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cowie A.P. (editor), *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*, Oxford, Oxford University Press, 1998.
2. Azamatov M., *Hikmatlar xazinasi*, Toshkent, O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1977.
3. Jamolxonov H., *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*, Toshkent, “Talqin”, 2005.
4. Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupova T., *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*, Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N., Yusupova Sh., Mahmudov N., *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. 1-, 2-, 3-kitoblar, Toshkent, “Ilm ziyo”, 2013.
6. Qodirov Z., *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*, Toshkent, “Metodist nashriyoti”, 2025.
7. Rahmatullayev Sh., *Hozirgi adabiy o‘zbek tili*, Toshkent, “Universitet”, 2006.
8. Rahmatullayev Sh., *O‘zbek tili frazeologik lug‘ati*, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

9. Sapayev Q., Hozirgi o‘zbek tili: morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya, Toshkent, 2009.
10. Foziliya M., “Parafraza va laqablar tahlili”, Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (2), 30 July, 2021, pages 1-10.
11. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_calques
12. <https://www.theidioms.com/hit-the-roof/>
13. <https://gemini.google.com/app>
14. <https://tilmoch.ai/uz/translator>
15. <https://www.prodigygame.com/main-en/blog/riddles-for-kids>
16. <https://quillbot.com/blog/rhetoric/periphrasis/>